

**O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

UDK: 633.511.631.312

**GOSSYPIMUM HIRSITUM TURIGA MANSUB DAVLAT NAV SINOVIGA
TOPSHIRILGAN O‘ZPITI-1602 NAVI**

Avliyoqulov Nurali Eronqulovich

ITPITI, q.x.f.n., k.i.x.
nuraliavliyoqulov54@mail.ru

Avliyoqulov Turg‘un Nuraliyevich

Surxondaryo viloyati Agrokimyoviy tahlil markazi, Agroekologiya bosh
toksikolog
lasetti95@mail.ru

Annotatsiya. O‘zPITI-1602 navi standart navlarga nisbatan eng samarali hisoblanadi, tola hosildorligi bo‘yicha 12,2 foizdan ortiq. O‘zPITI-1602 navi eng yuqori hosildorlikka ega bo‘lib, 40,4% ga etadi.

Abstract. The UzPITI-1602 variety is considered the most productive compared to standard varieties, with a fiber yield of more than 12.2%. The UzPITI-1602 variety has the highest yield, reaching 40.4%.

Аннотация. Сорта ЎзПИТИ-1602 является наиболее урожайным по сравнению со стандартными сортами урожайность больше 12,2 процента по выходу волокна сорта ЎзПИТИ-1602 наиболее высоко выходным достигая 40,4 %.

Kalit so‘zlar: Ingichka va o‘rta tolali g‘o‘zani duragaylash, chatishtirish, yakka tanlov, qatorli va qanorli, tez pisharlik, ko‘sak, tola sifati, uzilish quvvati, metrik raqami, chiziqli zichlik, mikroneyr, tola uzunligi, tola chiqimi.

Keywords: Crossbreeding of fine and medium-fiber cotton, crossbreeding, single selection, row and warp, fast-drying, slub, fiber quality, breaking strength, metric number, linear density, micronaire, fiber length, fiber yield.

Ключевые слова: Скрещивание тонко- и средневолокнистого хлопка, скрещивание, простой отбор, ряд и основа, быстросохнувший, утолщенный, качество волокна, разрывная прочность, метрический номер, линейная плотность, микронейр, длина волокна, выход волокна.

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

Qadim zamonlardan insoniyat o‘simlikning jumladan g‘o‘zani eng yaxshi turlarini tanlab borish yo‘li bilan asta-sekin tola sifati yaxshi, birmuncha serhosil madaniy g‘o‘za navlarini yaratgan. G‘o‘za dastlabki ekib kelingan joylardan yangi- yangi mintaqalarga jumladan tropik mintaqadan asta-sekin subtropik mintaqalarga va mo‘tadil iqlimli tropik mintaqalardan birmuncha iliq iqlimli tog‘li zonalarga ko‘tarilgan.

Yer sharining mana shu tartibda geografik kengliklarida g‘o‘zaning past bo‘yli, ertapishar formalari paydo bo‘lishi, bu o‘simlikning yer yuzasida yanada ko‘proq tarqalishi va ekilish doirasining yanada kengayishi uchun katta imkoniyatlar ochib berdi.

Hozirgi kunda g‘o‘zaning ikki tur navi: G.hirsitum turiga mansub o‘rta tolali g‘o‘za navlari va G.barbadense turiga kiradigan ingichka tolali g‘o‘za navlari ekiladi. O‘rta tolali g‘o‘za navlari birmuncha tezpishar bo‘lganligi sababli asosiy maydonlarga ekiladi, ingichka tolali navlar esa Respublikamiz janubiy viloyatlari Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoroda ekiladi.

Hurmatli birinchi prezidentimiz I. A. Karimov fermer qanday kishi bo‘lishi kerak degan savolga quyidagicha javob qilganlar: “Fermer degani-u avvalo universal qobiliyatga ega bo‘lgan inson xalqimiz iborasi bilan aytganda, bugun fermerga qirq xunar ham oz. U bir vaqtning o‘zida ham agronom, ham chorvador, kerak bo‘lsa mexanizatorlik va mexaniklik ham dalada, tabelchi va iqtisodchi, bankir va buxgalter, ta‘minotchi vazifalariga ham bajaradi. Shu bilan birga, u o‘z maxsulotini sotish masalalari bilan shug‘ullanishi lozim” deb ta‘kidlaganlar. Demak, fermerlik o‘ta murakkab kasb bo‘lib, ishbilarmonlik, izlanuvchanlik, tinim bilmay ishlagani, bir vaqtning o‘zida ilg‘or tajriba va fan yutuqlari, ekinlar turlari, jumladan, g‘o‘za navlari bilan tanish bo‘lish va olimlar bilan hamkorlikda ishlashni talab qiladi.

Seleksiya ishlari paxtachilikda hosilni va uning sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ma‘lumki, hech qanday qo‘shimcha xarajatlarsiz, faqatgina har bir viloyatning tuproq-iqlim sharoitiga mos nav tanlab olish va yuqori sifatli urug‘ hisobiga, hosildorlikni 10-20 foizga va undan ko‘pga oshirish mumkin.

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

Yaxshi saralangan, unuvchanlik darajasi eng yuqori bo‘lgan urug‘lik chigitni ekish, birinchidan, to‘liq ko‘chat olishni ta‘minlasa, ikkinchidan, o‘simliklar butun o‘suv davrida yaxshi rivojlanib, yuqori va ertachi hosil to‘playdi hamda hosildorligi har gektariga 3-5 sentner yuqori bo‘ladi.

Bu borada tola sifati va tola chiqishi va boshqa belgilarning genetik boshqarilishini va chatishtirishga kiritilgan tizma va navlarning umumiy va spetsifik kombinatsion qobiliyatini, so‘ngra umumiy kombinatsion qobiliyati (UKQ) va spetsifik kombinatsion qobiliyati (SKQ) nisbatlariga asoslangan holda o‘rganilayotgan belgi va xossalarning irsiylanishida alohida genlar sistemasining xizmatini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Gossypium hirsutum turiga mansub g‘o‘za navlarining tola uzunligi 34-36 mm, IV tipga mansub bo‘lganlari ishlab chiqarish uchun qimmatbaho hisoblanadi, tolaning 36 mm dan uzun bo‘lishi ko‘proq kechpisharlikka va tola chiqishini pasayishiga olib keladi. Yuqorida ko‘rsatilgan belgilarning bir–biriga tanlash munosibligi ya‘ni tola uzunligining kamayishiga agrotexnik ishlovning past darajada bo‘lishi, parvarish qilish sharoiti sug‘orish, o‘g‘itlash, foydali haroratning miqdori kamligi ham sabab bo‘ladi, bundan tashqari tola sifatining pasayishiga turli kasalliklar fuzarioz, vertitsillioz, gommoz, ildiz chirish, alterparioz, mikrosporioz kabilar ham ta‘sir qiladi.

Seleksionerlarga chatishtirishlar (uslubini) rejasini to‘g‘ri tanlash boshlang‘ich ota-onalik shakllarining yuqori ko‘rsatkichli belgilarini o‘zida mujassam etgan kombinatsiyalarni yaratishga bog‘liq. Bu borada navning qay darajada qimmatli xususiyatlariga ega ekanligi, ayniqsa undagi kerakli muhim murakkab belgilarni birinchi navbatda inobatga olish zarur.

Seleksiya so‘zi tanlash yoki saralash degan ma‘noni bildiradi, ammo seleksiyaning yangi navlar yetishtirish to‘g‘risidagi hozirgi zamon fani sifatidagi mazmuni u so‘zni dastlabki ma‘nosini o‘zib borayotgan talablariga muvofiq seleksiya fani ham to‘xtovsiz rivojlana borishi lozim, chunki tuproq unumdorligini oshirish,

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

qishloq xo‘jalik mashinalarini takomillashtirish, yangidan yangi g‘o‘zaning qimmatli navlarini yaratishni talab etadi.

Butun dunyo paxta bozorida raqobatning yuqori darajasida, zamonaviy texnologik paxta va tez ishlovchi to‘qimachilik uskunalarning yaratilishi, yuqori sifatli va raqobatbardosh to‘qimachilik mahsulotlari olinishi zarurligi paxta tolasi sifatiga bo‘lgan talablarni yanada kuchayishiga olib keldi.

Paxta yetishtirishda dunyoda eng oldi xisoblangan mamlakatlarda ya‘ni AQSH Xitoy, Xindiston, Braziliya, O‘zbekiston va boshqa davlatlarda ma‘lum yutuqlarga erishilgan bo‘lib, ularda paxta tozalash sanoati ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta‘minlash uchun texnologik jarayonlarni boshqarish usullarini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Paxtadan mo‘l va sifatli hosil yetishtirishda tuproq unumdorligini oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Tuproq juda ko‘p xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan tabiiy jism hisoblanib, ulardan eng muhimi unumdorlikdir. Shu tufayli qishloq xo‘jalik ekinlaridan o‘shish davrida talab etiladigan miqdorda suv va oziqa moddalar bilan uzluksiz ta‘minlash orqali yuqori hosil yetishtirish mumkin.

Bizda yuqorida aytilgan talablarga asoslangan xolda Ingichk tolali paxtachilik ilmiy tadqiqod instituti seleksionerlari viloyatning o‘tloqi, taqir tuproqlarida, sizot suv satxi 1,5-2,0 metr bo‘lgan mexanik tarkibi og‘ir tuproqlarda tajriba olib borilib andoza 5 chi tipga mansub Namangan-77, 4 chi tipga mansub O‘zPITI-1602 navlarini (2015-2017) tajribaga asoslanib delyankalari 50 m² qilib ekildi.

Shu tajribada ekilgan g‘o‘zalarning bo‘yi sentabr oyida 89,8-95,5 sm, hosil elementlari 14,3-18,8 dona, variantlararo ko‘chat qalinligi 52,4-55,9 ming/ga ni tashkil qilib 50% pishishini xisoblaganimizda delyankalardan andoza Namangan-77 navida 108 kun, istiqbolli O‘zPITI-1602 navida esa 106 kun yoki andoza naviga nisbatan 2 kun erta pisharligini tajribalar ko‘rsatdi. Sentabr hosili istiqbolli O‘zPITI-1602 navida 34,5 s/ga, andoza Namangan-77 navida 32,5 s/ga ni tashkil qilib, umumiy hosilni hisoblaganimizda O‘zPITI-1602 navida 40,4 s/ga, andoza

**O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

Namangan-77 navida 37,0 s/ga yoki andoza Namangan-77 navidan 5% yuqori hosil olindi.

Bir ko‘rak vazni andoza navida 5,0 gr bo‘lgan vaqtda istiqbolli O‘zPITI-1602 navida 5,2 gr ni tashkil qildi.

Tola chiqimi andoza navida 35,5 % ni tashkil etib, O‘zPITI-1602 navida 40,4 % yoki andoza naviga nisbatan 12,2 % qo‘shimcha tola hosili olindi.

**O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

Davlat nav sinoviga topshirilgan o‘rta tolali O‘zPITI-1602 navining asosiy ko‘rsatkichlari

№	Navlar	50% Pishish kun	Sentabr hosili s/ga	Umumiy hosil s/ga	Andoza Namangan- 77 ga nisbatan	Bir dona ko‘rak vazni gr	Andoza Namangan- 77 ga nisbatan	Tola chiqimi %	Andoza Namangan- 77 ga nisbatan
1	O‘zPITI-1602 navi	106	34,5	40,4	100	5,2	+0,2	40,4	100
2	St Namangan-77	108	32,5	37,0	91,5	5,0	-0,2	35,5	87,8

**O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O.T.Alimardonov “Respublikaning janubiy hududlarida ingichka tolali g‘o‘zaning birinchi tip tola beradigan SP-1607 navidan yuqori hosil yetishtirish agrotexnologiyasi bo‘yicha tavsiyalar” Termiz 2025y 6.b.
2. Sh.S.Qo‘ziboyev, F.K.Abduvoxidov, “Urug‘lik chigit sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash uslubini takomillashtirish” Toshkent 2023y 3b.
3. I.Xoshimov, D.Jonibekov “Turli usul va sxemalardagi chigit ekishning ko‘chat qalinligiga ta’siri” Agroilm ilmiy amaliy jurnal 2022y №5 17b.
4. M.Saidov, X.Zokirov “Paxtachilik” darslik Termiz 2024y 177-185b.